

BEKOBOD SHAMOLINI GEOGRAFIK BAHOLASH**M.E.Djurayev***Guliston davlat universiteti,**“Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti.***D.H.Qozoqboyeva***Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bekobod shamoli hamda uning Bekobod hududiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Maqolada shuningdek, Bekobod shamolining atrof – muhit va tuman hududiga ta'siri bilan bog'liq jihatlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: shamol, havo oqimlari, tezlik, shamol yo'nalishi, harorat rejimi, yog'in miqdori, iqlim sharoiti, ekalogik ta'sir, geografik joylashuv.

Bekobod asosan, Toshkent viloyatida joylashgan eng janubiy tumanlardan biri hisoblanib, Respublikamizning eng muhim sanoat markazlaridan biridir O'zbekistondagi eng yirik va mashhur metallurgiya kombinati va sement zavodlari shu yerda joylashgan. Bekobod shahri asosan, qo'shni Tojikiston davlati bilan chegaradosh. Bundan tashqari u Sirdaryo viloyati bilan ham chegaradosh hisoblanadi. Bekobod shahri nafaqat metalurgiya, balki, Bekobod shamoli bilan ham Respublikamizda ancha mashhur hudud hisoblanadi.

Bekobod shamoli asosan, vodiylar tomondan esgan holda Xo'jand yo'lagi orqali Bekobod hududiga kirib keladi. Shamolning tezligi turlicha bo'lib, **Shamolning o'rtacha tezligi 15 — 20 metr/sekund, ba'zan 45 metr/sekundga yetadi. Bekobod shamoli 2 kundan 5 kungacha davom etadi va qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Bekobod shamoli yana, “Xovos” shamoli nomi bilan ham atashadi. Shamol eng ko'p esadigan vaqti asosan kuz va bahor oylariga to'g'ri keladi. Ba'zi hollarda shamol tezligi oshishi va kuchli bo'lishi oqibatida qishloq xo'jaligi va ekinlarga, transport harakatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, ariqlarni ko'mib, kanallarni turli jinslarga to'ldiradi, transport va aloqa yo'llariga jiddiy shikast yetkazadi, imoratlarni buzadi, tuproqning umumiy qismini uchirib, hosildorlik kamayishiga sabab bo'ladi. Bekobod shamoli kuchli shamollardan biri hisoblansada, lekin hech bir maromda esadigan shamol emas. Bekobod hududida ba'zi hollarda umuman shamol ham bo'lmaydi. Bekobod shamoli Sirdaryo viloyati tomon ya'ni Xovos tumani tomon esadi. Shamol shu yerda Xovos shamoli nomini oladi. Shamol tezligi, Xovos hududida yuqori bo'ladi.**

Bekobod shamolining geomorfologik sharoiti hududning geografik jihatdan joylashuviga va hudud yaqinidan oqib o'tgan Sirdaryo daryosining ta'siri va hududning iqlim sharoiti

bilan chambarchas bog‘liqdir. Bekobod shamolining shakllanishiga tabiiy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular ichida iqlim, tuproq qoplami va atmosfera bosimi farqlari asosiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar ta’sirida hududda tez- tez va kuchli shamollarni kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi.

Masalan, atmosfera bosimi farqlarini Bekobod shamoli shakllanishiga ta’sirini ko‘rib chiqsak, bunda asosan, sovuq va iliq havo massalarining o‘zaro to‘qnashuvidir. Hududda asosan yuqori va past bosimli oqimlarining hosil bo‘lishi shamol oqimlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Past bosimli havo oqimlari qish faslida, janubi-sharqiy tomonlardan sovuq havo oqimlari past bosim zonalariga tomon harakatlanadi va natijada shamol hosil qiladi.

Bekobod shamoli Bekobod hududning iqlimi va xo‘jalik faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bekobod shamolining xo‘jalik ahamiyati asosan, quydagilar hisoblanadi:

Shamolni energiya manbai sifatida, ya’ni, shamol energiyasidan foydalanish. Shamol elektr stansiyalari uchun qulay joyda joylashgan Bekobod hududida shamol energiyasidan foydalanish uchun imkoniyatlar mavjud. Bu esa hudud uchun energiya iste’molini kamayishiga va ekologik jihatdan toza energiya manbalarini rivojlantirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bekobod shamolining qishloq xo‘jalik uchun ham ahamiyati ham mavjud. Shamol tuproqning namlik darajasini qurutishi yoki havo aylanishini yaxshilashi mumkin. Ayniqsa, issiq yoz oylarida shamol havo haroratiga ta’sir etadi va qishloq xo‘jalik ekinlariga qulay sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda haddan tashqari kuchli shamol ba’zan ekinlarga zarar ham yetkazadi.

Bekobod shamoli Bekobod hududiga nafaqat Sirdaryo viloyatining iqtisodiy ekologik va ijtimoiy jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga uni to‘g‘ri boshqarish va undan samaraliroq foydalanish muhimdir. Bekobod shamoli nafaqat qishloq xo‘jaligiga shuningdek, transport va kommunikatsiya tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bekobod shamolining transport tizimiga ta’siri asosan, shamolning o‘rtacha darajadagi harakati yo‘llardagi chang va tutunni tarqatib, havoning tozalanishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatib, katta yordam beradi. Aksincha, uning yomon tomoni ham mavjud bo‘lib, kuchli shamol esishi natijasida yo‘lovchi transport va yuk mashinalar harakatini qiyinlashtiradi. Shamol telekommunikatsiya va internet tarmoqlariga ham ta’sir etadi. Shamol texnik xizmat ko‘rsatiladigan joylarni havosini zararli moddalar to‘planishidan himoya qiladi. Lekin ayrim hollarda kuchli shamol esishi natijasida aloqa minoralariga ham zarar yetkazishi mumkin. Ba’zi hollarda esa signal sifati pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Bekobod shamolining transport va kommunikatsiyaga ta’sirini to‘g‘ri boshqarish esa ushbu sohaning rivojlanishiga va samaradorligini oshishiga, unda yangi imkoniyatlar yaratishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bekobod hududiga shamolning ta'siri yuqori hisoblanadi. U asosan havo sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Asosan, shamolning tezligi yo'nalishi bilan bog'liqdir. Bekobod shamoli havo sifatiga quydagicha ta'sir etadi. Bekobod shamoli kuchli esishi natijasida tuproq va changni ko'chirishi mumkin. Bu esa chang havoga ko'tarilib havo sifatini yomonlashishiga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa aholi istiqomat qiladigan hududlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bekobod shamolining bu ta'sirlari nafaqat havo sifatiga, balki odamlarning aholining salomatligiga ham zararli ta'sir ko'rsatishi, ayniqsa chang va zarrachalar havoda uzoq vaqt saqlanib tursa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bekobod shamolining havo sifatiga salbiy ta'sirini biz ayniqsa urbanizatsiya va sanoat faoliyati markazlari yaqinida bilishimiz mumkin.

Shamol nafaqat transport harakatiga qolaversa, o'sha hududdagi o'simlik va tuproq qoplamiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bekobod hududida shamolning kuchli bo'lishi tuproq eroziyasiga olib kelishi mumkin. Kuchli shamol natijasida tuproqning yuqori qatlamlarini ko'chirib, qishloq xo'jaligi uchun muhim mineral va ozuqa moddalarni yo'qotishga sabab bo'ladi. Bu o'simliklarning o'sishiga zarar yetkazadi. Bu ayniqsa, past va ochiq joylarda shamolning ta'siri kuchayadi. Shamol tezligi yuqori bo'lsa, tuproqning namligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shamol o'zining tarqatuvchi rolini ham bajaradi. O'ziga xos o'simliklar uchun shamol urug'larini uzoq masofaga tarqatishda yordam beradi. Bekobod hududida shamol ba'zan tuproqni o'zgartirishi, yangi tuproq qoplamlar ham yaratishi mumkin. Bunday o'zgarishlar esa yangi o'simliklar uchun yashash sharoitini yaratadi.

Bekobod shamolining xususiyatlarini aniq bilishimiz va tasvirlashimiz uchun bir necha metodlarni ishlab chiqish zarur. Shamol energetikasi va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqishda Bekobod shamolining xususiyatlarni bilish juda muhim hisoblanadi. Bekobod shamoli atmosferaning harorat va namlik o'zgarishlariga qanday ta'sir qilishi haqida va iqlim tizimida qanday o'rin tutishi haqida tadqiqotlar iqlim o'zgarishini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, Bekobod shamolining ilmiy tadqiqotlari, zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash orqali yangi istiqbollarni ochishimiz ham mumkin.

Xulosa

Bekobod hududidagi shamol tezligi va havo oqimlari hududning iqlimiga, ekologik holatiga va qishloq xo'jaligiga sezilarli ta'sir qiladi. Bekobodning geografik xususiyatlari, tog'lar va pasttekisliklarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi, havo oqimlari va shamolning shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bekobod hududidagi shamol tezligi va havo oqimlarini doimiy ravishda kuzatish, uni tahlil qilishimiz esa iqlim va ekologik tizimni yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi va uni tabiiy resurslarni o‘rganish biz uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bekobod hududida shamolning geografik xususiyatlari va iqlim o‘zgarishlarini tahlil qilishimiz orqali Bekobod hududining barqaror rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Glazirin G.E., Chanisheva S.G., Chub V.E. O‘zbekiston iqlimining qisqacha ocherki.- Toshkent, O‘QITGMI, 1999. – 31 b.
2. Qayumov A., “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi”. Toshkent, 2020- yil.
3. “Toshkent viloyati tabiiy resurslari va ekologik xususiyatlari”. Davlat ekologiya qo‘mitasi, 2019-yil
4. “Bekobod tumanining iqlim xususiyatlari va suv resurslari”(ilmiy maqola) , Toshkent Davlat universiteti geografiya tadqiqotchilari . 2020-yil
5. Mansur Djurayev, Jahangir Husenov. “Geografiya fanidan o‘qishlar, amaliy geografiyada ko‘riliklar va yechimlari”. Geografiya va tabiiy resurslar jurnali 2 (01), 24-28